

O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (2022 yil yanvar-iyun)

1. Yalpi ichki mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilning yanvar-iyun oylarida O‘zbekiston Respublikasi YalM hajmi joriy narxlarda **389 631,2** mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2021-yilning mos davriga nisbatan **5,4 %** ga o‘sди.

YalMning o‘sishiga sanoat tarmog‘i eng katta hissa qo‘sхи, u 5,1 % ga o‘sди. Sanoat tarmog‘ining o‘sishi hisobiga YalMning 1,3 f.p. ga o‘sishi ta’mindи.

Qurilish ishlari hajmining o‘sishi 6,2 % ni tashkil etdi. Qurilish tarmog‘ining YalM o‘sishiga ijobiy hissasi 0,4 f.p.ni tashkil etdi.

Xizmat ko‘rsatish sohasida o‘sish sur’ati 7,3 % ni tashkil etdi. Shundan savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar 8,7 % ga, tashish va saqlash, axborot va aloqa 12,4 % ga hamda boshqa xizmat sohalari 5,5 % ga o‘sди. Xizmat ko‘rsatish sohasining YalM o‘sishiga ijobiy hissasi 2,8 f.p.ni tashkil qildи.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining o‘sishi 2,7 % ni tashkil etdi va YalM o‘sishiga ijobiy hissasi 0,6 f.p ni tashkil etdi.

Mahsulotlarga sof soliqlar hajmi 4,6 foizga o‘sди va YalM o‘sishiga ijobiy hissasi 0,3 f.p ni tashkil etdi.

2. Sanoat mahsuloti

2022-yil yanvar-iyun oylarida respublika korxonalarini tomonidan **251,4** trillion so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va o‘tgan yilning shu davriga nisbatan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi **105,1** foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining umumiyligi hajmida qayta ishlash sanoatining ulushi **83,0** foizni, - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati **9,7** foizni, elektr ta’minoti, gaz, bug‘ va havoni tozalash **6,8** foizni, suv ta’minoti, kanalizatsiya, chiqindilarni yig‘ish va yo‘q qilish **0,5** foizni ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi o‘sishining asosiy omili, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **5,4** foizga, shuningdek elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalash sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajmining **14,7** foizga ko‘payishi bo‘ldи.

Shu bilan birga, tog‘ - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalarida ishlab chiqarish o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **0,5** foizga, suv bilan ta’minalash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajmining **-11,6** foizga kamayish kuzatildи.

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish sanoatida (2021-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **133,2%**), asosiy

farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sanoatida (139,6%) ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga, Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 99,2%), kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati (91,9%), Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati (91,4%) korxonalarida ishlab chiqarish hajmida pasayish kuzatildi.

Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida ko'mir qazib olish (2021 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **102,8%**) va metall rudalari (**107,3%**) o'sishi kuzatilmogda.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan iste'mol tovarlarining o'sish sur'ati **127,8%** ni tashkil etdi va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning umumiy hajmidaqи ulushi **34,6%** qa yetdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi **33.9** foizni, nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi **66.1** foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2021-yilning mos davriga kelib oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati **119,9** foizni, nooziq-ovqat mahsulotlari **132,2** foizni tashkil etdi.

3. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

2022-yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot(xizmat)lari hajmi **131 722,0** mlrd. so'mni yoki 2021-yilning mos davriga nisbatan **102,7%** ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilikda, ovchilikda va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 127 681,0 mlrd. so'mni (102,7%), o'rmon xo'jaligida – 3 311,3 mlrd. so'mni (102,0%), baliqchilik xo'jaligida – 729,7 mlrd. so'mni (111,5%) tashkil qildi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot(xizmat)lari hajmining oshishi, asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmining ko'payganligi (2,7%) bilan bog'liq. Barcha toifadagi xo'jaliklarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining oshishi go'shtning – 2,5 % ga, donning – 7,4 % ga, kartoshkaning – 4,7 % ga, polizning – 8,4 % ga, meva va rezavorlarning – 3,6 % ga, uzumning – 5,8 % ga va ovlangan baliqlarning – 11,9 % ga oshishi bilan izohlanadi.

Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 74,6% - dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari, 21,7% - fermer xo'jaliklari, 3,7% - qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi xo'jaliklar hissasiqa to'q'ri kelishini ko'rsatmoqda.

4. Inflyatsiya darajasi

2022-yilning yanvar-iyun oylarida respublika iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasi **6,5 %** ni tashkil etdi.

Yil boshidan **oziq-ovqat mahsulotlari** narxlari o'rtacha **8,9 %** ga qimmatlashib, inflyatsiya darajasining umumiyligi o'sish sur'atiga 3,75 foiz darajasida (keyingi o'rnlarda f.d.) ta'sir etdi. **Nooziq-ovqat mahsulotlari** narxlari ushbu davrda **5,8 %** ga qimmatlashib umumiyligi ko'rsatkichning 2,01 f.d. o'sish sur'atini, **xizmatlar** esa **3,3 %** ga qimmatlashib, umumiyligi

ko'rsatkichni qo'shimcha 0,74 f.d. o'sish sur'atini ta'minladi. Yig'ma ko'rsatkichning o'sish sur'atiga ta'siri tuzilmasida oziq-ovqat mahsulotlari hissasiga umumiy o'sish sur'atinig 57,7 %i, nooziq-ovqat mahsulotlari hissasiga 30,9 % i va xizmatlar hissasiga 11,4 % i to'g'ri keldi.

Yig'ma INI o'sish sur'ati tarkibida oziq-ovqat inflyatsiyasining ta'siri yaqqol namoyon bo'ldi. **Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar** narxlarining oshishi hisobiga 2022 yilning I yarim yilligida INI 3,58 f.d. yuqoriladi. Salmoq ko'rsatkichlarida ushbu tovarlar hissasiga kuzatilayotgan tovarlar va xizmatlar umumiy ta'sirining 55,1 %i to'g'ri keldi.

2022-yilning yanvar-iyunida **oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar** o'rtacha **9,0 % ga** qimmatlashdi. Shu bilan birga, ushbu bo'lim tovar guruhlari orasida donli ekinlar va yorma mahsulotlari (21,2 %) hamda shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar (18,5 %) narxlari sezilarli darajada yuqori oshdi. Shunday qilib, joriy yilning I yarim yilligida bug'doy uni narxlari 35,9 % ga, shakar 46,7 % ga qimmatlashdi.

Boshqa bo'limlar orasida narxlarning sezilarli oshish darajasi dam olish, sport va madaniyat sohasida (9,0 %), restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari (8,8 %), maishiy tovarlar va xizmatlar (8,0 %), uy-ro'zg'or buyumlari, maishiy asboblar va uy-joylarga kundalik xizmat ko'rsatish (7,1 %) hamda sog'liqni saqlash sohasida (6,9 %) xizmatlari narxlarda qayd etildi.

5. Asosiy kapitalga investitsiyalar

2022-yilning yanvar-iyun oylarida, barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi **121806,4 mlrd.so'mni** tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **109,4 foizni** tashkil etdi.

Shu bilan birga, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar umumiy hajmida korxonalar mablag'lari hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar ulushi 34,1 %ni, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar – 4,2%, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lar - 9,6%, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar - 35,2%, shundan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) – 13,2%, aholi mablag'lari - 9,1%, Respublika budgeti – 6,6%, Taraqqiyot va rekonstruksiya jamg'armasi - 0,4%, Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg'armasi – 0,8%.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning 2021 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlarini moliyalashtirishning asosiy manbalari: Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari — 134,9 %; Respublika budgeti – 130,4 %, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lar – 126,8%, aholi mablag'lari – 106,6%, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar – 105,2 %, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) – 100,3 %.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha past o'sish sur'atlari O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar – 44,7%, Taraqqiyot va rekonstruksiya jamg'armasi – 26,7% kuzatildi.

6. Qurilish ishlari

2022-yilning yanvar-iyun oylarida **60325,4** mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati **106,2%**ni tashkil etdi. Qurilish ishlarning umumiyligi hajmining 15121,6 mlrd. so‘m yoki 25,1% yirik korxona va tashkilotlar, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 34989,7 mlrd. so‘m yoki 58,0 %, norasmiy sektor sub’ektlari tomonidan 10214,1 mlrd. so‘m yoki 16,9 % bajarildi.

7. Chakana savdo tovar aylanmasi

2022-yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **134 135,9** mlrd. so‘mnini tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **9,9 %** ga o‘sdi.

Yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2021 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **30,9 %** ga o‘sdi, bu esa umumiyligi savdo hajmining **22,7 %** ulushiga to‘g‘ri keladi. Kichik biznes subektlarining chakana tovar aylanmasi 2021-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **4,1 %** ga ko‘paydi. Respublika miqyosida ushbu sektoring jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **77,3 %** ni, shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **8,5 %** ulush bilan **11 352,7** mlrd. so‘mnini tashkil etdi.

8. Tashqi savdo aylanmasi

2022-yilning yanvar-iyun oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi **24 491,0** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2021 - yilga nisbatan **5 996,1** mln. AQSh dollariga yoki **32,4 %** ga ko‘paydi.

Jumladan, eksport hajmi **9 924,6** mln. AQSh dollariga (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **40,5 %** ga o‘sish) va import **14 566,4** mln. AQSh dollariga o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **27,4 %** ga o‘sdi).

Eksport tarkibida ham o‘sish kuzatildi, jumladan: Xayvonlar va usimliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar o‘tgan yilning mos davriga nisbatan - **16,6 b.** (17,4 mln. AQSh doll gacha), ichimliklar va tamaki- **3,4 b.** (33,9 mln. AQSh doll), turli xil tayyor buyumlar - **37,2 % ga** (136,8 mln. AQSh doll), oziq-ovqat maxsulotlari va tirik xayvonlar-**10,6 %** (62,6 mln. AQSh doll), shuningdek sanoat tovarlari **16,9 %** ga (343,0 mln. AQSh doll).

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskulalari- **29,4 %** (**1 122,6** mln. AQSh dollar), sanoat tovarlari - **31,2 %** (**655,4** mln. AQSh doll), kimyoviy vositalar va boshka toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash maxsulotlar- **28,0 %** (435,3 mln. AQSh dollari) to‘g‘ri keladi.

9. Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari

2022-yilning yanvar-iyun oyida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **160,6** trln. so‘mnini tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **14,5 %** ga o‘sdi.

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmining o‘sishida moliyaviy xizmatlarning **28,8 %** ga (ko‘rsatilgan umumiyligi bozor xizmatlari hajmining o‘sishidagi ta’siri 6,3 punkt), transport xizmatlari **11,2 %** ga (o‘sishdagi ta’siri

2,5 punkt), savdo xizmatlari **8,1 %** ga (o'sishdagi ta'siri 2,1 punkt), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **21,3 %**ga (o'sishdagi ta'siri 1,3 punkt), boshqa xizmatlar **15,2 %** (o'sishdagi ta'siri 0,6 punkt), yashash va ovqatlanish xizmatlari **13,9 %** (o'sishdagi ta'siri 0,4 punkt), shuningdek, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar **10,3 %** ga (o'sishdagi ta'siri 0,3 punkt) o'sishi ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning eng katta hajmi savdo xizmatlari (**40,2** trln.so'm, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati **108,1 %**), moliyaviy xizmatlari (**36,8** trln.so'm, **128,8 %**) va transport xizmatlari (**35,2** trln.so'm, **111,2 %**)ga to'g'ri keladi.

10. Korxona va tashkilotlar soni

2022-yil 1-iyul holatiga respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) 561,4 mingtani tashkil etdi (ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 493,7 mingta). O'tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonining o'sishi 8,9 foizni (jumladan, kichik korxona va mikrofirmalar 9,7 foiz) tashkil etdi. Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning eng yuqori o'sishi Samarqand (17,4 foiz), Xorazm (12,7 foiz), Qashqadaryo (11,2 foiz), Navoiy (11,0 foiz), Farg'ona (9,7 foiz), Surxondaryo (8,8 foiz), Jizzax (8,7 foiz), Andijon (8,6 foiz) viloyatlari va Toshkent shahrida (7,6 foiz) qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonining eng yuqori o'sishi savdo (15,3 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (12,1 foiz), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (10,2 foiz), axborot va aloqa (7,9 foiz), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (7,3 foiz), tashish va saqlash (6,6 foiz), sanoat (5,0 foiz) hamda qurilish (3,7 foiz) faoliyat turlariga to'g'ri kelgan.

2022-yil yanvar-iyun oyida respublikada 51,7 mingta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, shundan kichik korxona va mikrofirmalar soni 49,8 mingtani tashkil etdi.

2022-yil 1-iyul holatiga ko'ra respublikada xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 14 353 tani tashkil etdi. O'tgan yil bilan solishtirganda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonining o'sishi 12,0 % ni yoki 1 539 tani tashkil etdi. Ulardan 6 211 tasi qo'shma korxonalarni va 8 142 tasi xorijiy korxonalarni tashkil etgan.